TSUE

# YASHIL

## IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

№10



ISSN: 2992-8982

https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/

2025

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

Elektron nashr. 145 sahifa.
E'lon qilishga 2025-yil 1-oktyabrda ruxsat etildi.

**Bosh muharrir:**
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

**Bosh muharrir o'rinbosari:**
**Karimov Norboy G'aniyevich**

**Muharrir:**
**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

**Tahrir hay'ati:**
**Salimov Oqil Umrzoqovich,** O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Rae Kvon Chung,** Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
**Osman Mesten,** Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
**Axmedov Durbek Kudratillayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Axmedov Sayfullo Normatovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna,** pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Maxmudov Nosir,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Samadov Asqarjon Nishonovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Axmedov Ikrom Akramovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Hakimov Nazar Hakimovich,** falsafa fanlari doktori (DSc), professor
**Musayeva Shoira Azimovna,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
**Ali Konak (Ali Ko'nak),** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
**Cham Tat Huei,** falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
**Utayev Uktam Choriyevich,** O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
**Ochilov Farkhod,** O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Axmedov Javohir Jamolovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li,** texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
**Djudi Smetana,** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
**Krissi Lyuis,** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
**Glazova Marina Viktorovna,** Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Sevil Piriyeva Karaman,** falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li,** TDIU ITI departamenti rahbari
**Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li,** TDIU katta o'qituvchisi
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna,** Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.

# YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*



## Editorial board:

**Salimov Okil Umrzokovich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Rae Kwon Chung, South Korea,** Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
**Osman Mesten,** Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Akhmedov Sayfullo Normatovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Siddikova Sadokat Gafforovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Makhmudov Nosir,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Samadov Askarjon Nishonovich,** Candidate of Economic Sciences, Professor
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Akhmedov Ikrom Akramovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khakimov Nazar Khakimovich,** Doctor of Philosophy (DSc), Professor
**Musayeva Shoira Azimovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
**Ali Konak,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
**Cham Tat Huei,** Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
**Utayev Uktam Choriyevich,** Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
**Ochilov Farkhod,** Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Akhmedov Javokhir Jamolovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli,** Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
**Judi Smetana,** Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
**Chrissy Lewis,** Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
**Glazova Marina Victorovna,** Doctor of Sciences in Economics (Moscow))
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
**Sevil Piriyeva Karaman,** Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli,** Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli,** Senior lecturer at TSUI
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:
**Berkinov Bazarbay,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Po'latov Baxtiyor Alimovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** falsafa fanlari doktori (DSc), professor
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xalikov Suyun Ravshanovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Rustamov Ilhomiddin,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
**Kamilova Iroda Xusniddinovna,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**G'afurov Doniyor Orifovich,** pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Fayziyev Oybek Raximovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi,** iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** katta o'qituvchi
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** mustaqil tadqiqotchi
**Komilova Nilufar Karshiboyevna,** Geografiya fanlari doktori, professori

Board of Experts:
**Berkinov Bazarbay,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** Doctor of Philosophy (DSc), Professor
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khalikov Suyun Ravshanovich,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Rustamov Ilkhomiddin,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich,** Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
**Kamilova Iroda Khusniddinovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
**Gafurov Doniyor Orifovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
**Fayziyev Oybek Rakhimovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
**Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna,** Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** Senior Lecturer
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** Independent Researcher
**Komilova Nilufar Karshiboyevna,** Doctor of Geographical Sciences, Professor

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:
""Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali
O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.

# MUNDARIJA

QAYTA TIKLANUVCHI YASHIL ENERGIYA: BARCHA UCHUN MUHIM MASALA....13
**Muxiddin Kalonov**

MOLIYAVIY INNOVATSIYALAR: IQTISODIY MOHIYATI, QO'LLANILISHI VA RIVOJLANISHI....19
**Quliyev Begimqul Melikovich**

SAVDO KORXONALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA STATISTIK TAHLIL USULLARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI....24
**Sabirova Oysuluv Shonazarovna**

KORXONANING MEBEL MAXSULOTLARI BOZORIDAGI O'RNINI KENGAYTIRISH USULLARI....30
**Musayeva Shoira Azimovna**

IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSIYA KO'RSATKICHLARI TIZIMINING FUNKTSIONAL JIHATI....35
**Alabayev Sobitxon**

MAMLAKATIMIZDA MAHSULOTLARNING MUVOFIQLIGINI BAHOLASH AMALIYOTI....40
**Zakirov Ansabxon Akaidinovich**

ПЕСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ЗЕЛЁНЫХ ОБЛИГАЦИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ....48
**Саидахмедова Аида Мирзаевна**

KORXONALAR FAOLIYATIDA DEBITOR VA KREDITOR QARZDORLIKNI BOSHQARISH....55
**Mirzayev Ozod Furkatovich**

AHOLI PUL DAROMADLARI VA HUDUDIY IQTISODIY RIVOJLANISH KO'RSATKICHLARI O'RTASIDAGI EKONOMETRIK TAHLIL....59
**Qodirov Farrux Ergash o'g'li**

BUDJET RESURSLARI SHAKLLANISHIDA HUDUDNING SOLIQ SALOHIYATINI OSHIRISH VA MOLIYAVIY BARQARORLIK....64
**Yuldashev Adhamjon Axadjonovich**

SANOAT KORXONALARI IQTISODIY RIVOJLANISHI TUSHUNCHASIGA NAZARIY YONDASHUVLAR....69
**Muydinov Xusniddin Nuriddin o'g'li**

МЕТОДИКА УПРАВЛЕНИЯ ФИНАНСОВЫМИ ПОТОКАМИ В СИСТЕМЕ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЕТА....73
**Минутдинова Лилия Тагировна, Машарипов Озод Алимович**

ГАРМОНИЗАЦИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ СТАНДАРТОВ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН В СООТВЕТСТВИИ С МСФО....78
**Абдужалилова Дилноз Абдусаттаровна**

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA SMART TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARBLIGI....84
**Sobirjonov Muxiddin Toxirjon o'g'li**

TO'LOVGA QOBILIYATSIZLIK HOLATIDAGI KORXONALARDA TUGATISH BALANSINI TUZISH....90
**Nabiyev Gofurjon Nosirjon o'g'li**

O'ZBEKISTON SANOATINING "YASHIL" IQTISODIYOTGA O'TAYOTGANLIGI: IMKONIYATLAR VA CHEKLOVLAR....96
**Habibullayev Oybek Asliddin o'g'li**

YASHIL IQTISODIYOT KONTSEPTSIYASINING EVOLYUTSIYASI VA ILMIY-NAZARIY YONDASHUVLAR....102
**Allayarov Suxrob Rustamovich**

O'ZBEKISTONDA TO'G'RIDAN-TO'G'RI CHET EL INVESTITSIYALARINING MILLIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDAGI ROLI....107
**Raxmatov Adxam Itolmasovich, Boynazarova Matluba Xatamovna**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

HUDUDIY IJTIMOIY TENGLIK VA QASHSHOQLIKNI YUMSHATISHDA MEHNAT RESURSLARI OMILLARI ..... 114
**Durumov Temur G'olibovich**

TRANSPORT TARMOG'I VA MILLIY IQTISODIYOTNING ASOSIY TARMOQLARI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIKNI MODELLASHTIRISH (SURXANDARYO VILOYATI MISOLIDA) ..... 121
**Turayev Baxtiyor Ergashevich, Aymatov Sirojiddin To'raqul o'g'li**

RESPUBLIKA IQTISODIY TARAQQIYOTIDA OLIY TA'LIMNI MODERNIZATSIYA QILISH VA INVESTITSIYA JOZIBADORLIGINING O'RNI ..... 128
**Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich**

РОЛЬ ЭНЕРГЕТИКИ В ФОРМИРОВАНИИ УСТОЙЧИВОГО РОСТА ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА ..... 134
**Нигматуллаева Гулчехра Нуруллаевна**

O'ZBEKISTONDA OLIY TA'LIM BOZORINING RIVOJLANISH TENDENTSIYALARI VA UNDA SIFAT MENEJMENTINING ROLI ..... 139
**Yuldashev Iskandar Bahromovich**

# O‘ZBEKISTONDA OLIY TA’LIM BOZORINING RIVOJLANISH TENDENTSIYALARI VA UNDA SIFAT MENEJMENTINING ROLI



**Yuldashev Iskandar Bahromovich**
Tashkent international university rektori PhD

Annotatsiya: Ushbu maqola O‘zbekistonda oliy ta’lim bozorining rivojlanish tendentsiyalarini va sifat menejmentining undagi rolini tahlil etadi. So‘nggi yillarda O‘zbekiston oliy ta’lim tizimi jadal modernizatsiya jarayonidan o‘tmoqda: universitetlar mustaqilligi kuchaytirilmoqda, xalqaro standartlarga moslashish, sanoat bilan hamkorlik modellari joriy etilmoqda, shuningdek, raqamli texnologiyalar keng tarqalmoqda.

Kalit so‘zlar: oliy ta’lim bozori, rivojlanish tendentsiyalari, sifat menejmenti, modernizatsiya, sifat kafolatlari, universitet samaradorligi, raqamli transformatsiya, bozor raqobati.

Abstract: This article analyzes the development trends of the higher education market in Uzbekistan and the role of quality management in it. In recent years, the higher education system of Uzbekistan has been undergoing a rapid modernization process: the independence of universities is being strengthened, adaptation to international standards, models of cooperation with industry are being introduced, and digital technologies are also becoming widespread.

Key words: higher education market, development trends, quality management, modernization, quality assurance, university efficiency, digital transformation, market competition.

Аннотация: В статье анализируются тенденции развития рынка высшего образования в Узбекистане и роль в нём управления качеством. В последние годы система высшего образования Узбекистана переживает стремительный процесс модернизации: укрепляется самостоятельность вузов, адаптируются к международным стандартам, внедряются модели сотрудничества с промышленностью, а также широкое распространение получают цифровые технологии.

Ключевые слова: рынок высшего образования, тенденции развития, управление качеством, модернизация, обеспечение качества, эффективность вузов, цифровая трансформация, рыночная конкуренция.

## KIRISH

O‘zbekistonda oliy ta’lim tizimining rivojlanishi 2016-yilda mamlakatni rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi qabul qilinishi bilan jadal tus oldi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Bu borada, ko‘plab sezilarli o‘zgarishlarni qayd etish mumkin. Ularni quyidagi sanab o‘tishga harakat qilamiz:

Birinchidan, oliy ta’lim bilan qamrab olish ulushining oshganligi. 2016-yilda 9 foiz atrofida bo‘lgan ko‘rsatkich 2024-yilga kelib 40 foizdan oshdi. Bu esa, oliy ta’lim bozorida o‘sishni aks ettirib beradi.

Ikkinchidan, oliy ta’lim bozorida nodavlat oliy ta’lim muassasalarining vujudga kelishining rivojlanishi. Bunda xususiy sektor ulushi bo‘lgan oliy ta’lim muassasalarini tashkil etilishi oliy ta’lim bilan qamrab olish yuzasidan davlat universitetlariga bo‘lgan bosimni kamaytirishga xizmat qildi, desak to‘g‘ri bo‘ladi.

Uchinchidan, dastlab 10 ta, so'ngra 2021-yildan boshlab 35 ta davlat oliy ta'lim muassasalariga akademik va moliyaviy mustaqillik berilishi. Bunda ularning oliy ta'lim bozoridagi raqobat muhitiga chidamli bo'lishiga shart-sharoit yaratish o'zining aksini topdi.

To'rtinchidan, xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda qo'shma ta'lim dasturlarining ishga tushirilishi O'zbekistonda to'liq xorijiy tillarda ishlab chiqilgan o'quv dasturlari asosida malakali kadrlar tayyorlash tizimi rivojlana boshladi.

Oltinchidan, xorijiy oliy ta'lim muassasalarining filiallari yoki boshqa mulkchilik shaklida oliy ta'lim subyektlarining tashkil etilishi mamlakatimiz oliy ta'lim bozoridagi raqobat muhitini yanada sog'lomlashtirishga xizmat qilmoqda.

Yettinchidan, oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilarining mehnatiga haq to'lash tizimining tubdan yangilanganligi kabi jihatlarni keltirish mumkin.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Y.Jo'rayev oliy ta'lim va mehnat bozori o'rtasidagi o'zaro mutanosiblikni kengaytirish va uni yanada rivojlantirishga qaratilgan yondashuvlarni asoslashga e'tibor qaratadi[1]. Uning fikricha, ta'lim xizmatlarini rivojlantirish va unda sifatni ta'minlash uchun mehnat bozori tendentsiyalarini inobatga olish zaruratini ta'kidlab o'tadi. Bunda universitetlar nafaqat mahalliy, balki global mehnat bozori xususiyatlarini e'tiborga olishlari muhim hamiyat kasb etishini ta'kidlab o'tadi. Shuningdek, oliy ta'lim bozoridagi iqtisodiy munosabatlarda mehnat bozorining alohida ahamiyati to'g'risida to'xtalib o'tadi (2.1-rasmpga qarang).

Sh.Saloxitdinov va S.Kuzmina o'zlarining ilmiy izlanishlarida oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini baholashga qaratilgan yondashuvlarni keltirib o'tishadi[2]. Oliy ta'lim xizmatlari bozoridagi talab va taklif – oliy ma'lumotli bo'lgan mutaxassislarga bo'lgan taklif va talab, oliy ta'lim xizmatlari tizimi bandlikni ta'minlash kabi jihatlar bilan ifodalanishini ta'kidlab o'tadi. Oliy ta'lim bozoridagi tendentsiyalarni boshqarishda quyidagi omillar ta'sir ko'rsatishini qayd etib o'tishadi:

bilimning asosiy kapital maqomini olganligi.

ta'lim sohasida davlatning roli o'zgarganligi.

axborot texnologiyalarining rivojlanganligi kabi omillarni sanab o'tishadi.

M.Begaliyeva oliy ta'limning sifatini ta'minlash orqali mehnat bozorida munosib o'rin egallash nuqtai nazaridan o'zining fikrlarini bayon qiladi[3]. Uning fikricha, ta'lim sifatini ta'minlash orqali mehnat bozorida raqobatbardoshlikni ta'minlash mumkinligi qayd etiladi. Shuningdek, mehnat bozori talablariga mos ravishda umumiy va ixtisoslashgan kompetensiyalarni ajratib ko'rsatadi. Mazkur kompetensiyalarga erishish ta'lim jarayonini mehnat bozoridagi raqobat ustunligini belgilab beruvchi omil ekanligini ta'kidlab o'tadi.

Prof. D.Nabiyev va boshqalar o'zlarining tadqiqotlarida oliy ta'lim tizimidagi boshqaruv samaradorligi kabi omillarni tahlil etishga e'tibor qaratadi[4]. Ularning asosiy ilmiy yondashuvari universitetlarda ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish va uni yanada rivojlantirishga qaratilgan xulosalarni shakllantirib berishadi. Jumladan, universitetlarning xalqaro nufuzi ta'minlanishi uchun ilmiy salohiyat 70 foizdan kam bo'lmasligi lozimligi, biroq ushbu raqam O'zbekistonda 36,4 foizni tashkil etishi ta'kidlab o'tiladi. Shuningdek, 2020-yilda o'zbekistonliklar tomonidan xorijiy jurnalllarda chop etilgan maqolalarning 59,7 foizi yoki 1740 tasi "qaroqchi" jurnallarda ekanligi qayd etiladi. Bu esa, ilmiy tadqiqotlardagi sifat muammosining saqlanib qolayotganligini ifodalashi qayd etiladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqola muallif tomonidan ilmiy abstraksiyalash, qiyosiy tahlil, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Oliy ta'lim bozorining rivojlanishi ortidan ta'lim tizimida sifatni ta'kinlash masalalari dolzarbligini aks ettira boshlaydi. Jumladan, oliy ta'lim tizimida kadrlar tayyorlashda mehnat bozori xususiyatlarini inobatga olish, professor-o'qituvchilarning ilmiy tadqiqotlarini tashkil etishda sifatni ta'kinlashga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq bo'lmoqda.

1 Jurayev Y. D. Oliy ta'lim va mehnat bozori o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni chuqurlashtirishning ijtimoiy-iqtisodiy jihatlari //Экономика и финансы (Узбекистан). – 2017. – №. 5. – С. 29-35.

2 Saloxitdinov SH. F., Kuzmina S. N. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim xizmatlari sifatini baholash //Экономика и социум. – 2024. – №. 1 (116). – С. 1283-1286.

3 Begaliyeva M. A. Oliy ta'lim: o'zgaruvchan mehnat bozori talablari asosida yuqori malakali kadrlar tayyorlash masalalari //Conference on the role and importance of science in the modern world. – 2024. – T. 1. – №. 4. – S. 78-81.

4 Nabiyev D., Erkayeva G. Oliy ta'limda boshqaruv faoliyati mustaqilligining dolzarb masalalari //Iqtisodiyot va ta'lim. – 2021. – №. 6. – S. 193-199.




1-rasm. 2009-2024-yillarda oliy ta'lim tizimida professor-o'qituvchilar va talabalar soni o'zgarish tendentsiyalari

2009-2024-yillarda mamlakatimizda oliy ta'lim bozorida keskin o'zgarishlar bo'lganligini kuzatish mumkin. 2009-2015-yillarda professor-o'qituvchilarning soni bir chiziqda o'zgarishsiz rivojlanib kelganligini kuzatish mumkin. Ushbu davrda ham mos ravishda talabalar soni 2017-2018-o'quv yiliga kelib sakrash yuz berganligini qayd etish lozim. Biroq, 2018 -2019-o'quv yilidan ham professor-o'qituvchilar, ham talabalar soni jihatidan keskin burilish bo'lganligini qayd etish lozim. Professor-o'qituvchilar sonida 2019-2020-o'quv yildan keyin sezilarli o'sish vujudga kelganligini ko'rish mumkin (2.2-rasmga qarang).




2-rasm. O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalarining o'zgarish tendentsiyasi

2017-2018-o‘quv yiliga kelib, mamlakatimizda oliy ta’lim muassasalarining soni orta boshlaganligini kuzatish mumkin. 2021-yilga kelib esa, keskin o‘sa boshlaganligini kuzatish mumkin. Bu esa, ko‘plab universitetlarning tashkil etilishiga nisbatan hukumatning keng yo‘l ochib berishi bilan izohlashimiz mumkin bo‘ladi (2.3-rasmga qarang).

2024-yil iyun holatiga mamlakatimizda 210 ta oliy ta’lim muassasalari faoliyat borayotgan bo‘lib, 54 foizi davlat, 32 foizi nodavlat va xorijiy mulkchilik maqomida 14 foiz ekanligini qayd etish lozim. Mazkur tendentsiya oliy ta’lim bozoridagi raqobat uchun yetarli darajada subyektlar vujudga kelganligini ifodalab beradi. Ushbu tendentsiyalar fonida nodavlat oliy ta’lim muassasalarining bozordagi ulushi 1/3 qismga teng bo‘lishini kuzatish mumkin. Shuningdek, o‘rganilayotgan davrda mamlakatizda talabalar soni 1 mln. 174 ming 234 nafarni tashkil etmoqda.

1 mln.dan oshiq bo‘lgan talabalarning 818233 nafari davlat universitetlarida, 323822 nafari nodavlat universiteti va qolgan 32179 nafari xorijiy universitetlarda ta’lim olmoqda[5]. Mavjud talabalarning 27,5 foizi nodavlat universitetlarda ta’lim olayotganligi xususiy sektorning o‘rni qisqa davr mobaynida sezilarli rolga ega bo‘lib ulgurganligini aks ettiradi.

Bizningcha, oliy ta’lim bozorida nodavlat oliy muassasalarining roli keskin o‘zgarganligi bois ta’lim sifatini ta’minlashga bo‘lgan zaruratni keltirib chiqaradi. Bunda quyidagi jihatlarni inobatga olish muhim hisoblanadi:

Birinchidan, nodavlat oliy ta’lim muassasalarida davlat oliy ta’lim standartlari asosida o‘quv reja va dasturlarini mustaqil ishlab chiqilishiga e’tibor qaratish. Bunda o‘quv reja va sillabuslarni sifat mezonlarini joriy etish orqali bilvosita nazorat qilish tizimini joriy etish. Bunda masalan, bir sillabus (fan) doirasida bir kredit uchun mavzular sonini belgilash. Shuningdek, o‘quv rejada majburiy va tanlov fanlari nisbatiga qat’iy amal qilishni belgilash kabi jihatlarga e’tibor qaratish muhim hisoblanadi.

Ikkinchidan, universitet tuzilmasida o‘quv jarayonini tashkil etishga mas’ul bo‘lgan tarkibiy bo‘linmalarning faoliyatini tartibga solishni nazarda tutish. Shuningdek, ilmiy tadqiqot faoliyati bilan shug‘ullanishga nisbatan shart-sharoitlar tashkil etilishini nazarda tutish.

Uchinchidan, o‘quv va ilmiy faoliyatni amalga oshirishdagi infratuzilmaga talablarni belgilash. Bunda bir talaba va professor-o‘qituvchi uchun zarur bo‘lgan maydon va boshqa jihat mezonlarini belgilash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Umuman olganda, nodavlat oliy ta’lim muassasalarining tashkil etilishiga nisbatan tegishli tartibda rag‘bat ochib berilganligi alohida ahamiyatga ega hisoblanadi. Oliy ta’lim muassasalari sonining ortishi fonida ta’lim sifatini ta’minlashga bo‘lgan zarurat ham ortib borayotganligini ta’kidlash lozim. Islohotlar jarayonida miqdoriy bosqichning sifat bosqichiga o‘tish jarayonida albatta ta’lim sifati natijalarini mehnat bozori xususiyatlari bilan moslashtirish muhim hisoblanadi.

Bizningcha, oliy ta’lim bilan qamrab olish miqyosining oshganligi aynan oliy ta’lim muassasalari sonining ortishi fonida yuzaga kelganligi tabiiy hisoblanadi. Shu boisdan, nodavlat oliy ta’lim muassasalarining tashkil etilishi davlat oliy ta’lim muassasalariga bo‘lgan “talab bosimi”ni kamaytirishga, boshqacha aytganda bozordagi qizishni sovutishga yordam beradi.

Oliy ta’lim bozorida raqobat muhitining oshib borishi va davlat universitetlarining xalqaro tasnifini shakllantirish maqsadida islohotlar tadrijiyligi fonida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrda “Davlat oliy ta’lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-60 va “Davlat oliy ta’lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-61-sonli qarorlari qabul qilinishi davlat universitetlarida qator o‘zgarishlarga olib keldi, deb o‘ylaymiz.

Mazkur hujjatlarning qabul qilinishi bilan davlat universitetlarida akademik mustaqillik borasida qator imkoniyatlar berilganligini qayd etish lozim. Jumladan:

o‘quv dasturlari va ta’lim xususiyatlarini mehnat bozori talablariga mos ravishda belgilash.

bakalavriat va magistraturada ta’lim olishning muddatlarini belgilash.

oliy ta’limdan keyingi ta’lim tizimining zamonaviy tartiblarini belgilash.

o‘quv va ilmiy adabiyotlari yangi avlodini yaratishda nashrga ruxsat berish tizimini joriy etish.

ta’lim sifatini nazorat qilishning ichki mexanizmlarini joriy etishga qaratilgan elementlardan iboratligini ta’kidlash lozim.

E.Elmurodov o‘zining tadqiqotida mamlakatimiz oliy ta’lim muassasalari faoliyatida akademik mustaqillik borasidagi ilmiy yondashuvlarini keltirib o‘tadi[6]. Uning fikricha, oliy ta’lim muassasalarida akademik mustaqillikni ta’minlashda bir qator omillar mavjudligi ta’kidlab o‘tiladi. Jumladan, ta’lim va tadqiqotda individual erkinlikni ta’minlash, kollektiv yoki institusional erkinlik, davlat organlarining akademik erkinlikni hurmat qilish va

5 https://stat.edu.uz/

6 Elmurodov E. O‘zbekistonda oliy ta’lim sohasidagi akademik erkinlikni ta’minlashning o‘ziga xos jihatlari //Наука и технология в современном мире. – 2023. – Т. 2. – №. 21. – С. 52-54.

kafolatlashi kabi elementlarni keltirib o‘tadi. Mazkur elementlar asosida universitetlarga mustaqillik berilishi bilan bir paytda ta’lim sifati, shaffoflik va javobgarlik kabi tamoyillarni ham belgilash muhim ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlab o‘tadi.

T.Ismailov o‘z tadqiqotida oliy ta’lim muassasalari boshqaruv jarayonlariga akademik mustaqillikni joriy etishda “tiyib turish va muvozanatda saqlash” mexanizmini joriy etishni taklif etadi[7]. Uning fikricha, davlat va nodavlat universitetlarda boshqaruv jarayonlarining o‘zaro farqli jihatlarga ega bo‘lishini belgilash o‘ziga xos xususiyatga ega ekanligini ta’kidlab o‘tadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 24-maydagi “Oliy ta’lim tashkilotlariga o‘qishga qabul qilish va davlat buyurtmasini joylashtirish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-81-sonli farmoni ham oliy ta’lim tizimidagi qator o‘zgarishlarni olib kelishga xizmat qiladi, deb o‘ylaymiz.




3-rasm. Davlat buyurtmasi asosida kadrlar tayyorlashning zamonaviy ekotizimi

Bunda davlat oliy ta’lim muassasalari kesimida qabul kvotalarini belgilash amaliyotidan voz kechib, davlat buyurtmasini oliy ta’lim muassasalari o‘rtasida raqobat elementlariga asoslangan holda amalga oshirilishi oliy ta’lim bozoridagi yangi bosqich rivojlanishiga xizmat qiladi. Mazrur tizimni biz 2.4-rasmda keltirilgan kabi bo‘lishini maqsadga muvofiq, deb o‘ylaymiz.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Oliy ta’lim muassasalarining xalqaro tasnif bo‘yicha rivojlantirishda ta’lim sifatini amalga oshirilishi muhim hisoblanadi. Bu borada, quyidagi jihatlarga e’tibor berish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

Birinchidan, inson resurslar nuqtai nazaridan ta’lim sifatini baholash mumkin: jumladan, professor-o‘qituvchilar rakursidan o‘quv jarayoni va ilmiy tadqiqotlarni tashkil etish, amalga oshirishni baholash metodlarini qo‘llash.

talabalar nuqtai nazaridan o‘quv jarayonlarini tashkil etish va unga ta’sir etuvchi omillarni baholashni inobatga olish.

o‘quv va ilmiy tadqiqot jarayonlarini boshqarish bilan bog‘liq bo‘lgan rahbariyatning yondashuvi omili.

Ikkinchidan, moddiy resurslar nuqtai nazaridan ta’lim sifatini baholash jarayonlarini tashkil etish mumkin: jumladan, o‘quv mashg‘ulotlari uchun auditoriyalarning sifati.

mustaqil ta’limni tashkil etish uchun axborot resurs markazi va adabiyotlar fondining ko‘lami kengligi.

ta’lim uchun to‘lov hajmining universitet ta’lim tashkil etish jarayonlari va oliy ta’lim bozorida raqobatbardosh bo‘lishini inobatga olish.

professor-o‘qituvchilar uchun infratuzilmaning yaratilganligi va ularga qulay ish joylarini yaratilganligini inobatga olish kabilarni keltirish mumkin.

Umuman olib qaraganda, mamlakatimiz oliy ta’lim bozoridagi keskin burilishning vujudga kelishi ta’lim sifatiga bo‘lgan zaruratni keltirib chiqardi. Bu esa, ta’lis sifatini boshqarishda ham inson, ham moddiy resurslardan samarali foydalanishni o‘ida ifoda etmoqda.

7 Ismailov T. Oliy ta’lim boshqaruvida akademik mustaqillik prinsiplari va amaliyot //Глобальное партнерство как условие и гарантия стабильного развития. – 2020. – T. 1. – №. 1. – C. 61-63.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Teshabayev T.Z. Oliy ta’lim tizimida innovatsion faoliyatni axborot texnologiyalari asosida boshqarishni takomillashtirish: i.f.d. ... avtoreferat. – T.: TDIU, 2019. – 83 b.
2. Jurayev Y. D. Oliy ta’lim va mehnat bozori o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni chuqurlashtirishning ijtimoiy-iqtisodiy jihatlari // Экономика и финансы (Узбекистан). – 2017. – №. 5. – С. 29-35.
3. Saloxitdinov SH. F., Kuzmina S. N. Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim xizmatlari sifatini baholash //Экономика и социум. – 2024. – №. 1 (116). – С. 1283-1286.
4. Elmurodov E. O‘zbekistonda oliy ta’lim sohasidagi akademik erkinlikni ta’minlashning o‘ziga xos jihatlari //Наука и технология в современном мире. – 2023. – Т. 2. – №. 21. – С. 52-54.
5. Ismailov T. Oliy ta’lim boshqaruvida akademik mustaqillik prinsiplari va amaliyot //Глобальное партнерство как условие и гарантия стабильного развития. – 2020. – Т. 1. – №. 1. – С. 61-63.
6. Choy, S. C., & Cheah, P. K. (2009). Teacher perceptions of critical thinking among students and its influence on higher education. International Journal of teaching and learning in Higher Education, 20(2), 198-206.
7. Adizov B.I. Innovatsion rivojlanish sharoitida oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilari raqobatbardoshligini oshirish (Buxoro viloyati misolida): i.f.b.f.d. ... avtoreferat. – T.: TDIU, 2022. – 60 b.

# YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir oʻgʻli

**2025. № 10**



© Materiallar koʻchirib bosilganda ""Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida koʻrsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.



Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna boʻlishingiz mumkin. Obuna boʻlgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga toʻlov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida joʻnatishingizni soʻraymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga joʻnatamiz.

""Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan
Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi boʻyicha roʻyxatdan oʻtkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulugʻbek tumani
Kumushkon koʻchasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz